

Siddiqova Umidaxon Soxibjon qizi

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha

magistrumidasiddiqova466@mail.com

NAVOIYNING SHOHLIK HAQIDAGI ILMIY -FALSAFIY QARASHLARI ("FARHOD VA SHIRIN" DOSTONI 53-BOB MISOLIDA)

Annotasiya: Ushbu maqolada Shoh G'arib Mirzoga nasihat qilish orqali shohlik maqomiga qanday erishish mumkinligi xususida so'z boradi. Badiiy tahlil va ilmiy yondashuv asosida bayt mazmuni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: shohlik, hukmdorlik, axloq, xalqparvarlik, Farhod va Shirin, temuriylar, Temurxon, Ulug'bek Mirzo, Shoh G'arib Mirzo,

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonida nafaqat muhabbat va sadoqatni, balki ijtimoiy, axloqiy va siyosiy g'oyalarni ham chuqur falsafiy asosda badiiy ifoda etadi. Ayniqsa, dostonning 53-bobi hukmdorlik, shohlik, mehnat va xalqparvarlik g'oyalari bilan boyitilgan bo'lib, muallif bu bob orqali Shoh G'arib Mirzoga bevosita bo'lmasa-da, ramziy tarzda nasihatlar beradi. Ushbu maqolada mazkur bob asosida berilgan nasihatlar badiiy tahlil va ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Shoh g'arib mirzo (taxallusi G'aribiy) (15-asr 2-yarmi, Hirot) — shoir, temuriy shahzodalardan biri. Husayn Boyqaroning o'g'li. Zamondoshlari tomonidan o'z davrining nodir iste'dodli shoiri sifatida e'tirof etilgan. Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida Sh.G'.M.ga alohida bob ajratib, unga ko'pgina yaxshi nasihatlar qilgan. Keyinchalik vafot etganda ham, uning vafotiga ulug' shoir marsiya bag'ishlagan.

Navoiy shahzodaga nasihat qilarkan, "...bu shovor durlarni tufrog'din olg'ay va adosida quloq solg'ay, balki ul garonmoya gavharlarni quloqqa solg'ay",- deya umid qiladi. Dastlab Shohg'arib sultonni madh etib, so'ng shoh qanday bo'lishi kerakligi haqida so'z yuritadi. Sultonni yangi chiqqan Oyga o'xshatadi, ilm va kasbni Quyoshga mengzaydi. Oy Quyoshdan keladigan nur tufayli porlagani kabi insonda ilm bo'lsagina kamolga erisha oladi degan g'oyani ilgari suradi: Yangi oy badrliqdin keldi mahjur, Quyoshdin har kecha kasb etmasa nur.[1,359] Ushbu fikr yakunida ilm ahliga qilingan ta'zim, payg'ambarlarga qilingan ta'zimga tenglashtiriladi. Ilmning quvvati shu qadar kuchliki, olimlarga payg'ambarlarga qilinadigan ehtirom ila lutf ko'rsatish joizligi aytiladi. Birovning qilsa olimlarga ta'zim, Qilur go'yoki payg'ambarga ta'zim.[1,359] Fikr davomida ilm olishga kirishgan inson payg'ambarga farzand—voris bo'lishi tilga olinadi. Toj kiygan bilan hukmdorlik mavqeiga erishib bo'lmaydi. Tovusning boshida toji bor, ammo u bu imkoniyati bilan shohlik maqomiga erisha olmasligi badiiy tarzda yoritilgan. Vale tovuskim, ming zevari bor, Ne zevarkim, boshida afsari bor. Bu afsar birla shah demaslar oni, Ki, bor adli Yamon Hindustoni. Shahekim, ilm nurin torti zoti, Aning to hashr qoldi yaxshi oti.[1,360] Yuqorida keltirilgan baytlarga misol qilib, ilmni o'ziga kasb qilgan shohlar—Iskandar va Ulug'bek Mirzoning xalq uchun qilgan mehnatlari xususida so'z yuritilarkan, Iskandar ilm orqali quruqlik va dengizni qo'lga kiritgani, Ulug'bek esa osmonlarni zabt etgani borasidagi fikrlari bayon qilinadi: Temurxon naslidin sulton Ulug'bek, Ki, olam ko'rmadi sulton aningdek.

Rasadkim bog'lamish—zebi jahondur, Jahon ichra yana bir jahondur. Bo'lib bu nav' ilmi osmoniy Ki, andin yozdi "Ziji Ko'ragoniy"[1,360] Temurxon —Amir Temur, temuriylar saltanati asoschisi. Mirzo Ulug'bek esa uning nabirasi. Ulug'bek (laqabi, asl nomi

Muhammad Tarag'ay; 1394. Sultoniya sh. (hozirgi Eronda) 1449. – Samarqandlik buyuk o'zbek astronomi va matematikasi, davlat arbobi. Temurning nabirasi, otasi Shohrux davrida 17 yoshda Ulug'bek Movarounnahr va unga yondosh viloyatlarning to'la hukmdori qilib tayinlanadi. Keyinchauning davlatiga Xorazm ham qo'shiladi. 1447 y. Shohrux vafotidan keyin Ulug'bek Shohrux tasarrufidagi Xuroson bilan Movarounnahrni birlashtirib, kuchli davlat tuzmoqchi bo'ladi. Lekin reaksiya kuchlarning qattiq qarshiligiga duch keldi. 1449 yili Ulug'bek siyosatidan norozi o'g'li Abdulatifning roziligi va ruhoniylarning g'avg'osi bilan Samarqand yaqinidagi qishloqda qatl qilinadi (Guri Mirda), Ulug'bek davrida, ayniqsa, Samarqanda hunarmandchilik, me'morchilik, ilm-fan, savdo-sotiq ravnaq topdi. Ulug'bek moviy ilm va adabiyot bilan ham shug'ullangan.[1,405]

“Ziji Ko'ragoniy” – Ulug'bekning yuz yillik rasadxonadagi aniq olib borilgan astronomik o'lchov kuzatishlari asosida tuzilgan jadvalaridan iborat asari.[1, 405] Navoiy ushbu baytlarni yozish asosida temuriylar sulolasining buyukligi, unga munosib bo'lmoqlik kerakligi xususida ibratomuz misollar aytadi. Ulug'bek Mirzoning mo'jizaviy asari "Ziji Ko'ragoniy" haqida fikr yuritadi. Mamlakat boshqaruviga oid masalalarni atroflicha muhokamaga tortadi. Oqibatda shahzodaga zotiga munosib bo'lmoqlik kerakligi xususida so'z yuritadi. Navoiyning fikricha, shohlik maqomiga sohib bo'lmoqlik uchun dastlab ilm olmoq kerak. Ruju' san'ati asosida yaratilgan ushbu bayt orqali shoh bo'lish uchun har nedan avval ilm olmoq kerakligi xususida xulosaviy fikr anglashiladi. Shoh uldirmekim, shiori ilmi dindir, Nedinkim ilmi din, ilm ul-yaqindur.[1,361] Shoh dinni ham, dunyo ilmini ham egallagan bo'lishi kerak. Agar sen bu ikki ishni orzu qilsang, shoh nima qilsa, unga ergash, taqlid qil. qalamim raqam etgan bu gaplar sening tabiatingga noxush kelgan taqdirda ham, ishonamanki. ehtiyojlar tushgan paytlarda, bu maslahatlarga amal qilib, natijalar topasan. Bu yo'llanmalar senga Meningto'la foyda yetkurgunday bo'lsa, mening ruhimni duo bilan shod etgaysen. Senga mening pandlarim har nafas foyda berganday, sen duo qilsang, bu menga ham foydalidir. Ey soqiy, sen menga bir piyola sharob tutib, ko'nglimni shod et, eski qulluqlarim haqini yodingdan chiqarma! Mening ishim ketma-ket nasihat qilish bo'lib qolgan ekan, pandlarimni eshitu, bir qadah may ber![2,531] Xulosa qilib aytganda, “Farhod va Shirin” dostonining 53-bobi Alisher Navoiy ijodining siyosiy-estetik mohiyatini chuqur ochib beradi. Ushbu bob asnosida adib nafaqat Shoh G'arib Mirzoga, balki Husayn Boyqaro va temuriy shahzodalarga Farhod obraziga jamlangan ijobiy fazilatlar orqali shohlikning asl mohiyatini eslatadi: shohlik bu – xizmat, bunyodkorlik, adolat, mehnat va sabrdir. Ushbu g'oyalar o'z davri uchun nafaqat dolzarb, balki universalligi bilan bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin(nazm).PDF. www.ziyouz.com.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. - T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2006.
3. G'ulomov G'. Sharq adabiyoti nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1978.
4. Juraev M. Navoiy va davr ijtimoiy fikri. – T.: Fan, 1982.
5. Valixo'jaev B. Mumtoz siymolar. I jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 304 b.
6. Valixo'jaev B. Mumtoz siymolar. II jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 175 b
7. Valixo'jaev B. Saylanma. II qism. – Samarqand: SamDU nashri, 2022